

INTERFAOL O'QUV KO'RGAZMALARNI YARATUVCHI DASTUR

AutoPlay Media Studio – bu diskklarga yozilganda avtomat ishga tushuvchi o'quv ko'rgazmalarni yaratuvchi dasturdir. Ushbu, diskga yozilgan dastur uncha katta bo'lishiga qaramay o'zida o'quv ko'rgazmalarni namoyish qilish uchun ko'plab funksiyalar to'plamini jam qilgan. AutoPlay Media Studio dasturi o'quv ko'rgazmalarini yaratish uchun ko'plab vizual anjomlarga ega. Bu anjomlar yordamida “tez va oson” o'quv dasturi yaratish mumkin. Ayniqsa, o'quv dastirini yaratishda boshqa dasturlar va o'quv materiallaridan (tasviriy, video, audio, animatsiya va h.k.) ham foydalanish imkonining mavjudligi ishni yanada osonlashtiradi.

Dasturni o'rnatish uchun minimal talablar

- Operatsion tizim: Windows 2000, Windows XP, Windows Vista, Windows 7.

- Protsessor: Pentium 4 va bundan yuqori.
- OZU: 256 MB va yuqori.
- Ekran: 1024x768 piksel va yuqori.
- Rang: 16 bit va yuqori.
- Disk: dasturni o'rnatish uchun 100 MB.
- Sichqoncha.
- DirectX 7 va yuqori.
- InternetExplorer 4.0 va yuqori.
- Adobe Flash Player 8 va yuqori.
- Adobe Reader 8 va yuqori.

Agar AutoPlay Media Studio o'rnatilgan kompyuter ekrani 1024x768 o'lchamli bo'lsa, u holda o'quv dasturini yaratishda 1920x1080 o'lchamli video material ham 1024x768 o'lchamga ega bo'ladi.

AutoPlay Media Studioga qo'shimcha yordamchi dasturlar o'rnatilishi bilan imkoniyatlari yana oshadi.

Interfeys

AutoPlay Media Studio ishchi oynasini shartli olti qismga bo'lish mumkin:

1. Menyu paneli.
2. Instrumentlar paneli.
3. Proekt yo'lovchisi.
4. Ob'ektlar xossasi paneli.
5. Ishchi yuza.
6. Proekt o'lchami paneli.

Fayl bo'limi

Bu bo'limda proektni saqlash, ochish va yangi proekt yaratish buyruqlari mavjud. Bundan tashqari Siz bu bo'limda o'z proektingizni (*.APT) fayl shabloniga, shu bilan birga (*.APZ) arxiv proektiga eksport qilishingiz mumkin. Proektni shablon ko'rinishida saqlashdan oldin Sizda avtor nomini, kontakt ma'lumotlarini va veb saytni kiritish imkoni mavjud bo'ladi. Arxiv shaklda saqlashdan maqsad ma'lumotlar yo'qotilgan hollarda uni qayta tiklash uchun proektning rezerv nusxasini yaratishdir.

Ochish buyrug'i AutoPlay Media Studioda (versiy3 – 8) yaratilgan proektlarni, shablon va arxivlarni ochishga imkon beradi. AutoPlay Media Studio 8 dasturi o'zidan oldingi versiyalarida yaratilgan proektlarni ham yangi formatda dastlabki xolatini o'zgartirmagan holda bemalol ochadi.

Yangi proekt *yaratish* buyrug'i tanlanganda oldindan kiritilgan o'n beshta tayyor proektlardan birini tanlab ishlash, yoki imkoniyatlarni kengaytirish uchun dastur rasmiy saytiga kirib, u erdan kerakli shablonlar va tayyor plaginlarni olish mumkin.

Tuzatish bo'limi

Ushbu bo'limda asosan standart buyruqlar bo'lib ular: kesib olish, ko'chirish, qo'yish, gruppalash va h.k. Yana bu bo'limda ob'ektlarni (rasm, tugmalar va h.k.) qavat-qavat shaklda ustma-ust qo'yish va ular o'rinlari ketma-ketligini almashtirish imkoni mavjud, bundan tashqari bu bo'limda dasturni sozlash uchun ham ruhsat bor.

Sahifa bo'limi

Sahifa bo'limi o'zida yangi sahifalarni yaratish, o'chirish, ko'chirish va qayta nomlash buyruqlarini jam qilgan. Agar Sizning proektingizda sahifalar ko'p bo'lsa, ular bilan ishlashda ushbu buyruqlar juda qo'l keladi. Ayniqsa, bir xil fonli sahifalarni yaratishda sahifani ko'chirish va uning fonini o'zgarishsiz qoldirib, qolgan ob'ektlarni o'zgartirish ishni osonlashtiradi, bunda ko'chirish buyrug'i qo'l keladi.

Ko'rinish bo'limi

Bu bo'limda asosan AutoPlay Media Studio instrumentlar panelini, setka, setkaga bog'lash va boshqalarni (tugmalar galereyasi, skriptlar redaktori, ob'ektlar provodnigi va h.k.) o'chirish\yoqishga imkon beradi.

Asboblar bo'limi

Asboblar bo'limi, asosan proektlarni yaratishda kerak bo'ladigan vizual instrumentlardan iborat.

Ushbu bo'lim ayrim kichik bo'limchalardan (standart, ob'ektlar, sahifalar, to'g'rilash) tashkil topgan. Bu bo'limchalarni foydalanuvchining xoxishi bilan ko'chirish yoki o'chirish mumkin.

Proekt yo'lovchisi

Proekt yo'lovchisi xuddi Windows yo'lovchisi kabi barcha sahifalar ro'yxati, amalga oshirilgan harakatlar, dialog va ob'ektlarni daraxt shaklda

namoyish etadi. Bu bo‘lim yordamida Siz proektdagi ixtiyoriy ob‘ektning osonlik bilan ko‘chirish, to‘g‘rilash va u ustida boshqa amallar bajarish xuquqiga ega bo‘lasiz.

Ayniqsa bu ustma-ust qo‘yilgan ob‘ektlar (sloy) bilan ishanayotganda juda qulaydir. U Menyu bo‘limining ayrim qismlari bilan ishlashga ruxsat beradi.

Ob‘ekt xossalari bo‘limi

Ob‘ekt xossalari bo‘limida tanlangan ob‘ekt xossalarini qo‘shimcha o‘zgartirish imkoni mavjud.

Misol uchun proektdagi tugmacha yozuv shiriftini, sichqoncha kursori ta‘sirida rangi va o‘lchamlarini o‘zgartirish ob‘ekt xossalari bo‘limida amalga oshiriladi.

Ishchi yuza

AutoPlay Media Studio dasturi ishchi yuzasining yuqori qismida gorizontal lineyka va uning ustida proekt sahifalari, chap qismida esa vertikal lineyka joylashgan.

Qulaylik uchun yaratilayotgan proekt AutoPlay Media Studio dasturining ishchi yuzasida to‘la ko‘rinib turishi tavsiya qilinadi.

Proekt o‘lchamlari paneli

Proekt o‘lchamlari paneli tayyorlanayotgan proekt o‘lchamlarini aks ettiradi. Bu proektni DVD disklarga yozishda juda qulaylik keltiradi. Bu panelda yozilayotgan diskdagi bo‘sh joylar to‘g‘risida axborot beriladi va Sizning proektingiz bu diskga to‘la sig‘adimi yoki yo‘qmi bu to‘g‘risida oldindan ma‘lumotga ega bo‘lasiz.

Dasturni sozlash

AutoPlay Media Studio dasturi o‘n uchta sozlash bo‘lmiga ega. Bu bo‘limlarning ayrimlari yana bo‘limchalarga bo‘linadi.

1. **Postroennie.** Bu bo‘limda AutoPlay Media Studioda qilingan tayyor proektlarni CD\DVD disklarga yozish tezligi va h.k. jarayonlar boshqariladi.

2. **Podpis koda.** Bu bo‘limda tayyor proektga egalik huquqi va avtor to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiritiladi.

3. **Dokumentatsiya.** Bu bo‘limda proektni avtomat tarzda saqlash sozlanadi.

4. **Okrujenie.** Bu bo‘limda foydalanuvchi interfeysi uchun temani, dasturdagi belgilangan va jamlangan ob‘ektlar ranglarini sozlash mumkin. *Vkladka.* Dialog oynasi joylashuvini (chap\o‘ng) ko‘rsatish mumkin. *Napravlyayushshie.* Yo‘naltiruvchi tasvirni va ranglarini sozlash. *Setka.* Setka, uning rangi va o‘lchamini sozlash. *Razmer proekta.* Ushbu bo‘limda proekt uchun disk o‘lchami beriladi, agar proekt o‘lchami oldindan kiritilgan o‘lchamdan oshib ketsa dastur foydalanuvchini ogohlantiradi. Bu bo‘limda 30, 50, 180, 650, 700, 4403, 4813, 25600, 51200, 102400 Mb o‘lchamlarni, yoki ixtiyoriy o‘lchamni ko‘rsatish mumkin. *Lineyki.* Lineyka rangini sozlash.

5. **Direktorii.** Bu bo‘limda proektni saqlash uchun direktoriya ko‘rsatiladi.

6. **Ob'ekti.** Har-xil ob'ektlardagi (tugma, daraxt va h.k.) shiriflarni sozlash.

7. **Peretaskivanie.** Fayl va skriptlar uchun sichqoncha yordamida ko'chirishni sozlash. *Vstavka na stranitsu\dialog*. Sahifa yoki dialog oynasidagi har-xil ob'ektlar uchun sichqoncha yordamida ko'chirishni sozlash. *Vstavka na ob'ekt*. Bir ob'ektni boshqasiga sichqoncha yordamida ko'chirishni sozlash.

8. **Assotsiatsiya s faylami.**

9. **Predvaritelniy prosmotr resursa.** Proektga qo'shilayotgan video\audio fayllarni avtomatik ishga tushirilishini sozlash.

10. **Redaktor skriptov.**

11. **Proverka orfografii.** Foydalanuvchi lug'atini (*.DIC) ishga solib imlo xatolariga tekshirishni sozlash.

12. **Avtostart.** AutoPlay Media Studio ishga tushganda uning harakatlarini sozlash.

13. **Obnovleniya.** AutoPlay Media Studio obnovleniyasini sozlash.

AutoPlay Media Studio dasturida ob'ektlar bilan ishlash asosiy buyruqlari quyidagilar:

- Vibor (tanlash).
- Polojenie (holat).
- Gruppirovka (guruhlash).
- Blokirovka (bloklash).
- Skritie (yashirin).
- Viravnivanie (to'g'irlash).

Aytib o'tilgandek AutoPlay MediaStudio ob'ektlarni ustma-ust qo'yishga imkon beradi. Bu holat ob'ektlarni sichqoncha kursori bilan tanlashda noqulaylik keltiradi.